



Samarqand viloyatida

kichik tadbirdorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 – yil yanvar – iyun




2020–yilning yanvar – iyunida kichik tadbirdorlikning YaHMdagisi ulushi **71,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirdorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **10,7** birlikni tashkil qildi.

2020–yilning yanvar – iyunida **4049** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,8** foizga kam.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 1599 ta, sanoatda 782 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 671 ta, yashash va ovqatlanishda 367 ta, qurilishda 216 ta, tashish va saqlashda 78 ta tashkil etilgan.

2020 – yil yanvar – iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Yanvar – iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019 – y.	2020 – y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	23 802	28 953	5 151
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	4 806	4 049	-757
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	71,0	71,2	0,2
Sanoat	%	42,4	43,8	1,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	92,9	96,2	3,3
Investitsiya	%	67,4	71,6	4,2
Qurilish	%	98,7	90,3	-8,4
Savdo	%	87,0	79,8	-7,2
Xizmatlar	%	72,2	69,4	-2,8
Yuk tashish	%	96,8	93,3	-3,5
Yuk aylanmasi	%	96,4	80,6	-15,8
Yo'lovchi tashish	%	93,9	96,3	2,4
Yo'lovchi aylanmasi	%	97,3	98,2	0,9
Eksport	%	78,3	56,3	-22,0
Import	%	70,0	44,0	-26,0



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'pi Samarqand shahrida - 844 ta, Samarqand tumanida – 339 ta, Kattaqo'rg'on tumanida – 337 ta, Pastdarg'om tumanida – 325 ta, Urgut tumanida – 286 ta va Ishtixon tumanida – 250 tani tashkil etgan. Shuningdek, past ko'rsatkich Nurobod tumanida – 151 ta va Paxtachi tumanida 116 tani tashkil etgan.

**Tuman va shaharlар bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019 – yil yanvar – iyun	2020 – yil yanvar – iyun	(+;-)
Samarqand viloyati	4 806	4 049	-757
<i>shaharlар:</i>			
Samarqand sh.	1 503	844	-662
Kattaqo'rg'on sh.	121	165	44
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo tumani	188	169	-19
Bulung'ur tumani	171	193	22
Jomboy tumani	216	195	-21
Ishtixon tumani	306	250	-56
Kattaqo'rg'on tumani	196	337	141
Qo'shrabot tumani	101	162	61
Narpay tumani	113	159	46
Payariq tumani	264	190	-74
Pastdarg'om tumani	396	325	-71
Paxtachi tumani	116	116	0
Samarqand tumani	467	339	-128
Nurobod tumani	125	151	26
Urgut tumani	313	286	-27
Tayloq tumani	210	168	-42



2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




2020 - yilning yanvar - iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Samarqand shahri - 20,8 %, Samarqand tumani - 8,4 %, Kattaqo'rg'on tumani - 8,3 %, Pastdarg'om tumani - 8,0 %, Urgut tumani - 7,1 %, Ishtixon tumani - 6,2 %, Jomboy va Bulung'ur tumanlarida - 4,8 %, Payariq tumani - 4,7 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar - iyun	2020 - yil yanvar - iyun	(+;-)
Jami	4 806	4 049	-757
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	366	671	305
Sanoat	1 228	782	-446
Qurilish	445	216	-229
Savdo	1 677	1 599	-78
Tashish va saqlash	115	78	-37
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	520	367	-153
Axborot va aloqa	101	63	-38
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	59	57	-2
Boshqa faoliyat turlari	295	216	-79

Ma'lumot uchun: 2020 – yilning yanvar – iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019 - yil yanvar-iyun	2020 - yil yanvar-iyun	Farqi (+;-)
Samarqand sh.	1 503	844	-659
Samarqand tumani	467	339	-128
Kattaqo'rg'on tumani	196	337	141
Pastdarg'om tumani	396	325	-71
Urgut tumani	313	286	-27
Ishtixon tumani	306	250	-56
Jomboy tumani	216	195	-21
Payariq tumani	264	190	-74
Bulung'ur tumani	171	193	22
Oqdaryo tumani	188	169	-19

2020 – yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida - 844 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - iyun holatiga ko'ra*



2020 – yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand shahrida 16,3 birlik, Payariq tumanida 12,6 birlik, Bulung'ur tumanida 11,7 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 11,5 birlik, Samarqand tumanida 11,2 birlik, Jomboy tumanida 11,0 birlik, Ishtixon tumanida 10,9 birlik, Nurobod tumanida 10,3 birlikni tashkil etgan. Narpay tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,5 birlikga to'gri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand shahrida 16,3 birlik, Payariq tumanida 12,6 birlik, Bulung'ur tumanida 11,7 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 11,5 birlik, Samarqand tumanida 11,2 birlik, Jomboy tumanida 11,0 birlik tashkil etdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Samarqand shahrida - 16,3 birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich**
Nurobod tumanida - 10,3 birlik;


- **Eng past ko'rsatkich**
Narpay tumani - 6,5 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Samarqand shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Narpay tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra, % da

2020 - yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 71,2 % ni tashkil qildi. (2019 - yilning yanvar - iyunida 71,0 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan ko'payishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020 – yilning yanvar – iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Samarqand viloyati	43,8	90,3	69,4	71,6
<i>shaharlar:</i>				
Samarqand sh.	29,0	87,1	51,0	74,1
Kattaqo'rg'on sh.	28,4	92,2	95,7	69,4
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur tumani	100,0	100,0	94,7	49,8
Jomboy tumani	31,6	100,0	90,1	68,7
Ishtixon tumani	24,2	100,0	97,4	72,5
Kattaqo'rg'on tumani	50,1	100,0	99,0	53,8
Narpay tumani	12,3	100,0	96,3	37,8
Nurobod tumani	100,0	100,0	98,9	67,1
Oqdaryo tumani	100,0	99,1	98,2	74,8
Payariq tumani	51,5	100,0	97,2	32,1
Pastdarg'om tumani	73,5	69,8	90,3	70,5
Paxtachi tumani	97,3	100,0	95,4	62,6
Samarqand tumani	74,4	91,7	94,1	73,9
Tayloq tumani	31,5	65,1	97,4	73,9
Urgut tumani	82,9	100,0	97,3	77,1
Qo'shrabot tumani	100,0	100,0	98,0	78,2

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Bulung'ur (100,0 %),
Nurobod (100,0 %),
Oqdaryo (100,0 %),
Qo'shrabot (100,0 %) va
Paxtachi (97,3 %)
tumanlarida.


Qurilishda-

Bulung'ur, Jomboy,
Ishtixon, Kattaqo'rg'on,
Narpay, Nurobod,
Payariq, Paxtachi,
Urgut va Qo'shrabot
(100,0 %) tumanlarida.

Xizmatlarda-


Kattaqo'rg'on (99,0 %),
Nurobod (98,9 %),
Odaryo (98,2 %),
Qo'shrabot (98,0 %),
Tayloq (97,4%), Ishtixon
(97,4 %) va Urgut
(97,3 %), tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2020 yilning yanvar-iyunida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Kattaqo'rg'on tumanida – 100,0%, Nurobod tumanida – 100,0 %, Oqdaryo tumanida – 100,0 %, Qo'shrabot tumanida – 100,0 %, Paxtachi tumanida – 100,0 %, Pastdarg'om tumanida – 99,2 % ni, eng past ko'rsatkich Samarqand shahrida – 18,2 %, Tayloq tumanida - 18,1% ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020 – yil yanvar – iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Ishtixon tumanida – 100,0 %, Qo'shrabot tumanida – 100,0 %, Paxtachi tumanida – 100,0 %, Payariq tumanida – 100,0 %, Urgut tumanida – 100,0 %, Kattaqorg'on tumanida – 94,0 %, Bulung'ur tumanida – 93,9 % Samarqand tumanida – 93,7 %, . Pastdarg'om tumani – 89,6 %. Eng past ko'rsatkich Narpay tumanida – 14,2 % ni tashkil etdi.



2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so`m





Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (991,1 mlrd. so'm), Urgut tumanida (503,9 mlrd. so'm), Samarqand tumanida (417,1 mlrd. so'm), Jomboy tumanida (310,5 mlrd. so'm) va Pastdarg'om (210,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot tumanida (19,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.





2020 – yil yanvar – iyun holatiga ko’ra, jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da




Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo tumani (100,0 %), Nurobod (100,0 %), Bulung'ur (100,0 %), Qo'shrabot (100,0 %), Paxtachi (97,3%), Urgut (82,9 %), Samarqand (74,4%), Pastdarg'om (73,5%) tumanlari tashkil etdi.

Kattaqo'rg'on shahrida (28,4%), Ishtixon (24,2 %) va Narpay (12,3 %) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o’sish sur’ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahrida - 991,1 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o’sish sur’ati 90,5 %), Urgut tumanida 767,4 mlrd. so’m (92,2%), Pastdarg’om tumanida 400,4 mlrd. so’m (91,9 %), Kattaqo’rg’on shahri 375,1 mlrd. so’m (100,5%), Bulung’ur tumani 337,5 mlrd. so’m (87,2 %) va Samarqand tumani 319,7 mlrd. so’m, (94,2 %).



2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri 822,5 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o’sish sur’ati 94,3 %), Oqdaryo tumani 224,4 mlrd. so’m (102,6 %), Payariq tumani 155,4 mlrd. so’m (103,6 %), Ishtixon tumani 138,2 mlrd. so’m (100,2%), Pastdarg’om tumani 136,7 mlrd.so’m (84,7 %), Jomboy tumani 136,4 mlrd. so’m (101,0 %), Tayloq tumani 130,8 mlrd. so’m (78,9 %) Urgut tumani 114,7 mlrd.so’m (93,6 %).





2020 – yilning yanvar – iyunida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p xizmatlar hajmi Samarqand shahri 1867,3 mlrd. so’m (2019 yilning yanvar – iyuniga nisbatan o’sish sur’ati 97,1%), Urgut tumani 236,5 mlrd.so’m (95,0 %), Pastdarg'om tumani 219,3 mlrd. so’m (94,6 %), Samarqand tumani 214,1 mlrd. so’m (94,1 %), Kattaqo'rg'on tumani 191,6 mlrd.so’m (93,9 %), Tayloq tumani 183,7 mlrd. so’m (93,7 %), Ishtixon tumani 172,8 mlrd. so’m (95,0 %).



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020 – yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1294** ta respondentlar ishtirok etdi.


2020 – yil II – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar savdoda – 39,3 % (509 ta), xizmatlar sohasidagi ulushi – 30,9 % (400 ta), sanoatda – 14,9 % (193 ta), qurilishda – 10,6 % (137 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 4,3 % (55 ta) ni tashkil etdi.

* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020 – yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qurilishda - 13,7 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 12,6 punktga, sanoat sohasida - 0,6 punktga o'sishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda - 33,3 punktga, savdoda sohasida – 32,4 punktga, xizmatlar sohasida - 33,1 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 30,5 punktga, sanoat sohasida - 28,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.


Oxirgi hisobot yilda sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020 – yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 14,4 punktga, xizmatlar sohasida - 11,4 punktga, savdo sohasida – 9,5 punktga, sanoat sohasida - 2,1 punktga, qurilish korxonalarda - 0,3 punktga kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 16,8 punktga, savdo sohasida - 6,1 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilish korxonalarida - 10,6 punktga, xizmatlar sohasida - 10,6 punktga, sanoat sohasida - 3,5 punktga, savdo sohasida - 3,4 punktga oshdi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019 – 2020 – yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020 - yil II choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 221 ta respondentlar qatnashgan. Shundan savdoda – 89 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 40,3%), xizmatlarda – 46 ta (20,8%), sanoat korxonalarida – 43 ta (19,5%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 31 ta (14,0%) va qurilishda – 12 ta (5,4%).

2020 – yil II – chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020 – yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020 – yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qurilishda - 13,7 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 12,6 punktga, sanoat sohasida - 0,6 punktga o'sishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda - 33,3 punktga, savdoda sohasida – 32,4 punktga, xizmatlar sohasida - 33,1 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 30,5 punktga, sanoat sohasida - 28,6 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

2019 – 2020 – yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020 – yilning II choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida - 19,2 punktga, savdo sohasida - 4,4 punktga, sanoat korxonalarida - 1,0 punktga, xizmatlar sohasida - 1,5 punktga, oshdi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida - 17,4 punktga, savdoda - 12,2 punktga, xizmatlar sohasida - 10,2 punktga, sanoat sohalarida - 5,7 punktga, kamaydi, hamda qurilish korxonalarida – 18,0 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlarida o'zgarishsiz qolgan.



2019 – 2020 – yil II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da

